



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



ABDIHAKIMOV Farhodjon Zafar o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti

Huquqiy fanlar kafedrası

tayanch doktoranti

E-mail: fabdihakimov@gmail.com

SUN'IY INTELLEKTNING FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI O'RNINI TASNIFLASH MUAMMOLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): ABDIHAKIMOV F.Z. Sun'iy intellektning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi o'rnini tasniflash muammolari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 84-92.

4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-009>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sun'iy intellekt (SI) tizimlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi maqomini huquqiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida SI tizimlarining fuqarolik muomalasiga faol jalb etilishi ularning huquqiy tabiatini aniq belgilashni taqozo etmoqda, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Maqolaning maqsadi SI tizimlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlarda obyekt sifatidagi o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijasida SI tizimlari mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan subyekt emas, balki fuqarolik huquqi normalari asosida tartibga solinuvchi maxsus turdagi obyekt sifatida qaralishi lozimligi asoslab berilgan. Muallif SI tizimlarining fuqarolik muomalasi obyekt sifatidagi o'ziga xos belgilarini (avtonomlik darajasi, huquqiy egalik masalasi, javobgarlik taqsimoti) tahlil qiladi va ularni an'anaviy obyektlar (mulk, ashyolar, mulkiy huquqlar)dan farqlovchi jihatlarni ko'rsatib beradi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda SI tizimlarini fuqarolik huquqi obyekt sifatida tasniflashning yagona mezonlar tizimi taklif etiladi. Amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish, xususan Fuqarolik kodeksiga SI tizimlarining huquqiy maqomini belgilovchi normalarni kiritish borasidagi takliflarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligidadir. Maqola yuridik ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, fuqarolik huquqi, huquqiy munosabat obyekt, huquqiy maqom, fuqarolik muomalasi, raqamli huquq, javobgarlik taqsimoti, huquqiy shaxs.

АБДИХАКИМОВ Фарходжон

Базовый докторант кафедры

Юридических наук Национального

Университета Узбекистана (PhD соискатель)

E-mail: fabdihakimov@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ КЛАССИФИКАЦИИ МЕСТА ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена правовому анализу статуса систем искусственного интеллекта (ИИ) в гражданско-правовых отношениях. В условиях современной цифровой экономики и технологического прогресса активное вовлечение систем ИИ в гражданский оборот требует чёткого

определения их правовой природы, что и обуславливает актуальность настоящего исследования. Цель статьи заключается в теоретическом и практическом анализе места систем ИИ в гражданско-правовых отношениях в качестве объекта права. В результате исследования обосновано, что системы ИИ не обладают самостоятельными правами и обязанностями как субъект права, а должны рассматриваться как особый вид объекта, регулируемого нормами гражданского права. Автор анализирует специфические признаки систем ИИ как объекта гражданского оборота (степень автономности, вопрос правового обладания, распределение ответственности) и раскрывает их отличия от традиционных объектов (имущество, вещи, имущественные права). Научная новизна статьи состоит в предложении единой системы критериев для классификации систем ИИ как объекта гражданского права. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования его результатов для совершенствования гражданского законодательства Республики Узбекистан, в частности при разработке предложений по включению в Гражданский кодекс норм, определяющих правовой статус систем ИИ. Статья может быть использована также в юридическом образовании и научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, гражданское право, объект правоотношения, правовой статус, гражданский оборот, цифровое право, распределение ответственности, субъект права.

FARKHODJON Abdikhakimov

National University of Uzbekistan

Department of Legal Sciences

Doctoral Candidate (PhD Researcher)

E-mail: fabdihakimov@gmail.com

PROBLEMS OF CLASSIFYING THE PLACE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN CIVIL LEGAL RELATIONS

ANNOTATION

This article is devoted to the legal analysis of the status of artificial intelligence (AI) systems in civil legal relations. In the context of the modern digital economy and technological progress, the active involvement of AI systems in civil transactions requires a clear determination of their legal nature, which underlies the relevance of this study. The purpose of the article is to provide a theoretical and practical analysis of the place of AI systems in civil legal relations as an object of law. As a result of the study, it is substantiated that AI systems do not possess independent rights and obligations as a subject of law, but should instead be regarded as a special type of object regulated by the norms of civil law. The author analyzes the specific characteristics of AI systems as an object of civil transactions (degree of autonomy, the question of legal ownership, and allocation of liability) and reveals their distinctions from traditional objects (property, things, and property rights). The scientific novelty of the article lies in proposing a unified system of criteria for classifying AI systems as an object of civil law. The practical significance of the research consists in the possibility of using its findings to improve the civil legislation of the Republic of Uzbekistan, in particular in developing proposals for incorporating norms defining the legal status of AI systems into the Civil Code. The article may also be applied in legal education and scientific research activities.

Keywords: artificial intelligence, civil law, object of legal relations, legal status, civil transactions, digital law, allocation of liability, subject of law.

Soʻnggi oʻn yillikda sunʼiy intellekt (SI) tizimlarining jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiyot, sogʻliqni saqlash, taʼlim va sanoat sohalarida, balki huquq tizimida ham tub oʻzgarishlarni taqozo etmoqda. Mashinali oʻrganish, chuqur neyron tarmoqlar va generativ sunʼiy intellekt tizimlarining avtonom qaror

qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi ularni an'anaviy fuqarolik muomalasi ishtirokchilariga o'xshash tarzda harakat qilishga imkon bermoqda. Bu holat, o'z navbatida, mazkur tizimlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi o'rnini ular huquq subyektimi yoki obyektimi, degan dolzarb savolni yuridik fanlar oldiga qo'yimoqda.

Xalqaro miqyosda ushbu masala bo'yicha yagona yondashuv hali shakllanmagan. Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan sun'iy intellekt to'g'risidagi reglament (AI Act) [1], shuningdek AQSH [2], Germaniya [3], Yaponiya [4] va Xitoyning [5] tegishli normativ hujjatlari SI tizimlarini tartibga solishda turlicha huquqiy konstruksiyalardan foydalanmoqda. Ayrim tadqiqotchilar SI tizimlariga "elektron shaxs" (electronic personhood) maqomini berish tarafdori bo'lsa [6], boshqalari bunday yondashuvning huquqiy javobgarlik institutini beqarorlashtirishi mumkinligini asoslab, SI tizimlarini faqat maxsus huquqiy rejimga ega obyekt sifatida tan olishni taklif etmoqda [7. B.363]. Ushbu ilmiy bahs hozirgacha yakuniy yechimini topmagan.

Hozirgi vaqtda sun'iy intellekt (SI) tizimlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyektlari sifatida ham e'tirof etilmoqda. Bu tendensiya nafaqat nazariy-doktrinaviy darajada, balki amaldagi milliy va xorijiy qonunchilik hujjatlarida ham o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori, shuningdek, 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarorida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan va sun'iy intellekt davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy soha uchun joriy etiladigan texnologik vosita (obyekt) sifatida tilga olinadi. Mazkur strategiya doirasida, jumladan, O'zbekistonning hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) dunyoning birinchi 50 ta davlati qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan, bu esa SI ni davlat tomonidan boshqariladigan va rag'batlantiriladigan obyekt sifatida qaralishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yevropa Ittifoqi 2024-yil aprel oyida dunyoda birinchi bo'lib sun'iy intellekt tizimlarini tartibga soluvchi maxsus qonunni (EU AI Act) qabul qildi, unda xavfning to'rt darajasi, minimal darajadan yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajagacha, bo'yicha tasniflash tizimi belgilangan. Mazkur tartibga solish modeli SI ni xavf darajasiga qarab tasnif etiladigan texnik mahsulot (obyekt) sifatida qarash konsepsiyasiga asoslanadi. Xususan, SoSafe tadqiqot markazining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, o'tgan yili dunyo bo'yicha tashkilotlarning 87 foizi sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilgan kiberxujumlarga duch kelgan [8], bu raqam ham SI ning vosita (qurol) sifatida foydalanilishi mumkinligi nuqtai nazaridan baholanishini ko'rsatadi, zero javobgarlik har doim undan foydalanuvchi yoki uni yaratgan shaxsga nisbatan qaralmoqda.

Bugungi kunda fuqarolik qonunchiligida sun'iy intellekt tizimlari nazariy jihatdan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida alohida e'tirof etilmagan. Biroq, fuqarolik huquqi nazariyasidan kelib chiqib ushbu holatni tahlil qiladigan bo'lsak, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarini ushbu munosabatga kirishishi uchun asos bo'ladigan obyektlar hisoblanadi. Shuning uchun fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyektlari masalasi fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan eng asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Obyektlar esa doim takomillashib borgani sayin fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yangi obyektlari bilan kengayib boradi, sun'iy intellekt tizimlari ham shular jumlasidandir.

Fuqarolik qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyektlari tushunchasi mavjud emas. Ammo, mazkur tushunchaga bir qator yuridik adabiyotlarda ta'riflar keltirilgan.

I.B.Zokirovning fikriga ko'ra, huquqiy munosabatlarning obyekti huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan, huquq va majburiyatlar uning ustida belgilangan moddiy va nomoddiy ne'matlardir. Boshqacha aytganda, jismoniy va yuridik shaxslar foydalanishi va tasarruf etishini amalga oshira oladigan, erkin suratda olish, sotish huquqi va odob-axloq normalari bilan cheklanmagan yoki taqiqlanmagan har qanday moddiy narsalar va moddiy qiymatliklar, qadriyatlar boylik hisoblanib, fuqarolik huquqining

obyekti bo'la oladi [9, B.35]. X.Rahmonqulovning so'zlariga ko'ra, shaxsning muayyan ehtiyojlarini qondiruvchi ne'matlarga yo'naltirilgan fuqarolik huquqi subyektlarining harakatlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyektlari hisoblanadi [10, B.43]. J.I.Yuldashevning fikricha, fuqarolik huquqi subyektlarining muayyan ehtiyojlarini qondiradigan ne'matlarga qaratilgan harakatlari obyektlar hisoblanadi [11, B.56]. O'zbekiston Respublikasi FKning normalariga yozilgan sharhda esa fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti tushunchasiga sodda qilib fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi narsa obyekt hisoblanishi qayd qilingan [12, B.252].

Ko'rib turganimizdek, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyektlari bu ushbu munosabat ishtirokchilarining ma'lum ehtiyojlarini qondiruvchi ne'matlardir.

X.R.Isanovning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt tizimlarining o'ziga xos xususiyati ularning o'z-o'zini o'rganish, avtonom harakat qilish hamda ayrim hollarda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga egaligidadir. Aynan shu xususiyatlar sun'iy intellektning huquqiy maqomini aniqlashni murakkablashtiradi va ushbu tizimlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning alohida mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi [13, B.32].

V.V.Arhipov va V.B.Naumovning taklifiga ko'ra, sun'iy intellekt tizimlarini fuqarolik huquqi obyektlari tizimida alohida toifa sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir [14, B.160]. Ularning fikricha, bunday tizimlar huquqiy nuqtai nazardan "avtonom harakat qila oladigan mol-mulk" sifatida baholanishi mumkin. Bu yondashuv sun'iy intellekt tizimlarining ikki asosiy xususiyatini hisobga oladi. Birinchidan, bunday tizimlar moddiy yoki nomoddiy mulk sifatida iqtisodiy qiymatga ega bo'ladi. Ikkinchidan, ular muayyan darajada mustaqil ravishda harakat qilish yoki qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Sun'iy intellekt tizimlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti sifatidagi o'rnini belgilashda, eng avvalo amaldagi qonunchilikning ushbu institutga oid asosiy normativ negiziga tayanishimiz zarur. Bunday negiz sifatida O'zbekiston Respublikasi FKning 81-moddasini ko'rsatish mumkin. Xususan, mazkur moddaga muvofiq, ashyolar (jumladan pul va qimmatli qog'ozlar), boshqa buyumlar, mol-mulk va mulkiy huquqlar, ishlar hamda xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot va san'at asarlari, intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shaxsiy nomulkiy huquqlar, shuningdek boshqa moddiy va nomoddiy boyliklar fuqarolik huquqi obyektlari sifatida qonun tan olingan.

Yuridik adabiyotlarda fuqarolik huquqi obyektlarini ikki turga: moddiy (ashyoviy) va nomoddiy (noashyoviy) turlarga bo'linadi [15].

Mazkur tasnifdan kelib chiqqan holda, sun'iy intellekt tizimlarining qaysi toifaga mansubligini aniqlash alohida metodologik ahamiyatga ega. Zero, sun'iy intellekt tizimi, bir tomondan, dastur kodi, ya'ni nomoddiy, intellektual faoliyat natijasi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, u amalda fuqarolik muomalasida xuddi moddiy ashyolarga xos bo'lgan xususiyatlar – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish imkoniyatlari, iqtisodiy bahoga egalik bilan ham ta'riflanadi. Aynan shu ikki tomonlama xususiyat sun'iy intellektni fuqarolik huquqi obyektlari tizimida aniq bir toifaga kiritishni murakkablashtiradi va uni alohida, o'ziga xos o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur obyektlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning nima asosga ko'ra kelib chiqqanligini, bu munosabat aynan nimaga qaratilganligini anglatadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qonun chiqaruvchi fuqarolik huquqi obyektlari ro'yxatini qat'iy cheklab qo'ymagan, balki uni ochiq shaklda belgilash orqali kelgusida ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi turdagi fuqarolik huquqi obyektlarini huquqiy tartibga solish imkoniyatini nazarda tutgan. T.Rahmonov ta'kidlaydiki, "SIn fuqarolik huquqining obyekti sifatida ko'radigan tarafdorlar ko'p bo'lishiga qaramay, fuqarolik huquqi doktrinasida hali ham shubhalar mavjud. Buning sababi shundaki, SI boshqa moddiy obyektlardan farqli o'laroq, ma'lum darajada avtonomlikni namoyon qiladi, garchi u hali ham inson tomonidan belgilangan vazifalar doirasida ishlasa-da. Boshqa bir yondashuv SIn intellektual faoliyat natijasi sifatida intellektual mulk obyekti deb ko'radi. Biroq bu yondashuv ham kamchiliksiz emas, chunki u muayyan huquqiy savollarni ko'taradi. Xususan, SI inson kabi intellektual mulk yarata oladi, bu

esa oxir-oqibat SIni asarning muallifi va intellektual mulk huquqlari egasi sifatida tan olish masalasiga olib keladi” [16, B.451]. Bizningcha, T.Rahmonovning mazkur yondashuvi sun’iy intellektning fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlashda mavjud nazariy qarashlarning murakkab va bahsli jihatlarini asosli ravishda yoritadi. Darhaqiqat, sun’iy intellektning ayrim elementlari avtonom faoliyat belgilarini namoyon etsa-da, bu holat uni fuqarolik huquqining mustaqil subyekti sifatida e’tirof etish uchun yetarli huquqiy asos bo’la olmaydi. Chunki sun’iy intellektning yaratilishi, o’qitilishi, faoliyat ko’rsatishi va uning natijalaridan foydalanilishi insonning irodasi hamda nazorati bilan uzviy bog’liq bo’lib qolmoqda.

Surrey universiteti professori Rayan Ebbott o’zining “The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law” (Cambridge University Press, 2020) nomli asosiy asarida “sun’iy intellektning huquqiy neytralligi” (AI legal neutrality) deb nomlangan konsepsiyani ilgari suradi [17, B.6]. Muallifning fikricha, qonunchilik sun’iy intellekt va inson xatti-harakati o’rtasida farq qo’ymasligi kerak, ammo shu bilan birga u SIga mustaqil huquqiy shaxs yoki huquqlar berish zarur emas, deb ochiq ta’kidlaydi, faqat bu insonlarga foyda keltirgan taqdirdagina muayyan moslashuvlar qilinishi mumkinligini aytadi. Demakki, Ebbott SIni huquqiy tartibga solinishi lozim bo’lgan obyekt/vosita sifatida qaralishini ma’qullaydi.

Bat universiteti (keyinchalik Hertfordshir) professori Joanna Brayson o’zining mashhur “Robots Should Be Slaves” nomli maqolasida robot va sun’iy intellekt tizimlarini hech qachon shaxs sifatida tavsiflash kerak emasligi, ularga huquqiy yoki axloqiy javobgarlik yuklash mumkin emasligini ochiq asoslaydi [18, B.13]. Muallifning fikricha, robotlar to’liq ravishda insonlar tomonidan egalik qilinadigan mulk hisoblanadi va ularning maqsadi hamda xatti-harakati to’liq inson tomonidan belgilanadi yoki boshqariladi. Brayson SIni “insoniylashtirish” bu insonlarning o’zini “degumanizatsiya” qilishga olib keladi va resurs hamda javobgarlikni taqsimlashda noto’g’ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo’ladi, deb ogohlantiradi.

Vashington universiteti professori Rayan Kalo Ebbottning yuqoridagi kitobiga javoban yozgan tanqidiy taqrizida, sun’iy intellektga erta (muddatidan oldin) huquqiy shaxs maqomini berish javobgarlik masalalarini oydinlashtirish o’rniga, aksincha, ularni xiralashtirishi mumkinligini ta’kidlaydi [19, B.9]. Bu pozitsiya ham, amaliy-huquqiy nuqtai nazardan, SIn subyektga aylantirishdan ko’ra, mavjud javobgarlik (mas’uliyat) rejimlarini takomillashtirish yo’nalishini ma’qullaydi, ya’ni SI obyekt sifatida qolishi, javobgarlik esa inson (ishlab chiqaruvchi yoki foydalanuvchi) zimmasida qolishi tarafdoridir.

Yuqoridagi olimlar sun’iy intellektga mustaqil huquqiy shaxs (subyekt) maqomini berish na nazariy, na amaliy jihatdan maqsadga muvofiq emas deb hisoblaydi. Shuningdek, ularning barchasi SIn fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti, ya’ni inson tomonidan egalik qilinadigan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan texnik vosita sifatida qarash zarurligini tasdiqlaydi.

S.S.Bozorov sun’iy intellekt faoliyati bilan bog’liq javobgarlikning axloqiy va huquqiy taomillarini tahlil qilar ekan, javobgarlikni hamisha SIDan foydalanuvchi yoki uni ishlab chiqqan shaxs zimmasiga yuklaydi, deb hisoblaydi [20, B.52]. Bunday yondashuv SIning o’zini mustaqil javobgar subyekt emas, balki inson tomonidan boshqariladigan va nazorat qilinadigan obyekt/vosita sifatida qarash konsepsiyasiga asoslanadi.

S.S.Bozarovning ta’kidlashicha, sun’iy intellekt insonning ayrim intellektual faoliyatini taqlid qilishi mumkin bo’lsa-da, u inson bilan tenglashtirilishi yoki mustaqil huquq subyekti sifatida e’tirof etilishi mumkin emas. Aksincha, sun’iy intellekt fuqarolik muomalasida foydalaniladigan texnologik vosita sifatida namoyon bo’ladi. Shu munosabat bilan ayrim xorijiy olimlar sun’iy intellekt tizimlari foydalanuvchilarni o’zining sun’iy intellekt ekanligi haqida xabardor qilishi zarurligini asoslaydilar [21, B.62].

A.V.Ubaydullaeva “Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan intellektual mulkning huquqiy tartibga solinishi” mavzusidagi falsafa doktori dissertatsiyasi intellektual mulk to’g’risidagi qonun hujjatlari doirasida sun’iy intellekt tizimlari tomonidan yaratilgan asarlarning huquqiy maqomini aniqlashga qaratilgan bo’lib, bu SIn mustaqil subyekt emas, balki intellektual mulk qonunchiligi doirasida tartibga solinadigan obyekt (yaratuvchi vosita) sifatida qarash konsepsiyasiga asoslanadi [22, B. 65].

I.Rustambekov, S.Gulyamov, A.Ubaydullaevlar SI mustaqil subyekt emas, balki intellektual mulk yaratilishi jarayonidagi vosita/obyekt sifatida tahlil qiladilar [23, B.5].

Yuqorida tahlil qilingan yondashuvlarni umumlashtirgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, zamonaviy yuridik fanlar tizimida sun'iy intellektning obyekt maqomini saqlab qolish zarurati ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslangan, degan qarash ustuvor mavqega ega bo'lib bormoqda. Mazkur pozitsiyani quvvatlovchi dalillar turli yo'nalishlardan kelib chiqsa-da, ularning barchasi yakuniy natijada bir xulosaga olib keladi.

Birinchidan, "huquqiy neytrallik" konsepsiyasi nuqtai nazaridan yondashilganda, qonunchilikning sun'iy intellekt va inson xatti-harakati o'rtasida adolatli munosabatda bo'lishi talab etilsa-da, bu mavjud huquqiy tartibot doirasida uning foydalanuvchilarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishini ta'minlash, deb tushunilishi lozim.

Ikkinchidan, sun'iy intellektni "insoniylashtirish" tendensiyasining o'zi xavfli deb baholanadi, chunki bu inson mas'uliyatining eroziyaga uchrashiga va resurslar hamda javobgarlikni taqsimlashda noto'g'ri institutsional qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Demak, obyekt maqomini saqlash nafaqat nazariy tozalik, balki amaliy-institutsional barqarorlik nuqtai nazaridan ham zarur hisoblanadi.

Uchinchidan, SIga nisbatan yangi, mustaqil huquqiy kategoriya yaratilishi javobgarlik masalalarini oydinlashtirishdan ko'ra, aksincha, uni mavhumlashtiradi, degan ogohlantiruvchi qarash ham muhim ahamiyatga ega, chunki, bu shuni ko'rsatadiki, amaliy-huquqiy jihatdan mavjud javobgarlik rejimlarini takomillashtirish ancha maqbul yo'l hisoblanadi.

Milliy doktrinaviy yondashuvlar ham xuddi shu yo'nalishni quvvatlaydi: javobgarlikning hamisha SIDan foydalanuvchi yoki uni ishlab chiqqan shaxs zimmasiga yuklanishi, hamda sun'iy intellektning intellektual mulk qonunchiligi doirasida yaratuvchi vosita/obyekt sifatida tartibga solinishi, bularning barchasi SINi obyekt sifatida tan olishning amaliy zaruratini tasdiqlaydi.

Shu tariqa, turli metodologik yo'nalishlarning yakuniy uyg'unligi shuni isbotlaydiki, sun'iy intellektni fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekt sifatida tan olish bu tasodifiy emas, balki huquqiy nazariya va amaliyotning o'zaro mutanosibligidan kelib chiqadigan, ilmiy jihatdan puxta asoslangan xulosadir.

X.Rahmonqulovning "fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barcha obyektlari har qanday sharoitda tabiiy holatda oldindan paydo bo'ladi, faqat so'ngra ular tufayli fuqarolik-huquqiy munosabatlar vujudga keladi deb o'ylash doimo to'g'ri kelmaydi, haqiqiy sharoitda bunday ketma-ketlik yuz bermasligi, balki aksincha bo'lishi ham mumkin" [10, B.36] degan fikrlariga qo'shilgan holda, ushbu qonuniyatni sun'iy intellekt tizimlari misolida yanada aniqroq kuzatishimiz mumkinligini ta'kidlaymiz. Zero, sun'iy intellekt tizimlari xuddi shu holatning yorqin namunasini tashkil etadi, deb hisoblaymiz.

Bizningcha, odatda ashyoviy huquq obyektlari (ko'chmas mulk, buyumlar, hayvonlar va hokazo) avval tabiiy yoki ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi, so'ngra qonunchilik ularni tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqqan holda ularga nisbatan muayyan huquqiy rejimni belgilaydi.

Sun'iy intellekt tizimlarida esa ahvol tamoman boshqacha ekanligini ko'rishimiz mumkin, bu obyekt avvalo dasturchilar, investorlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlar, intellektual mulk huquqi va investitsiya munosabatlari doirasida ya'ni allaqachon mavjud bo'lgan huquqiy shakllar (masalan, "nou-xau", "xizmat ko'rsatish shartnomasi", "tijorat siri") ichida loyihalashtiriladi, moliyalashtiriladi va yaratiladi, so'nggina u "obyekt" sifatida mustaqil texnik-texnologik voqelik tarzida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, sun'iy intellekt tizimi avval huquqiy (shartnomaviy va mulkiy) munosabatlar doirasida "buyurtma" yoki "loyiha" sifatida yuzaga kelishini, uning yaratilish jarayonining o'zi huquqiy bezak (shartnoma, litsenziya, intellektual mulk obyekt sifatidagi ro'yxatdan o'tkazish) orqali amalga oshirilishini va faqat shundan keyin u tayyor mahsulot, ya'ni texnik obyekt sifatida fuqarolik muomalasiga kiritilishini alohida qayd etishimiz mumkin.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimining huquqiy maqomi ko'p jihatdan uning tabiiy-texnik xususiyatlaridan emas, balki aynan qonunchilikning uni qanday tartibga solishidan kelib chiqishini ko'rishimiz mumkin. Xususan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, sun'iy intellekt tizimi obyektiv ravishda

mavjud bo'lgan texnik hodisa bo'lsa-da, uning "kompyuter dasturi" sifatida tan olinishi va shu orqali mualliflik huquqi obyektiga aylanishi – bu tabiiy jarayon emas, balki sof yuridik-texnik qaror natijasidir. Agar uni boshqacha tarzda, masalan, "ma'lumotlar bazasi", "ixtiro" yoki mutlaqo yangi, o'ziga xos huquqiy kategoriya sifatida tan olinganida, uning fuqarolik-huquqiy maqomi ham tubdan boshqacha bo'lishi mumkinligini aytishimiz mumkin. Demak, mazkur misolda obyektning o'zi emas, balki unga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy rejim (mualliflik huquqi normalarining qiyosan tatbiq etilishi) birinchi navbatda shakllanganini va shu huquqiy asosga tayanib, sun'iy intellekt tizimi "fuqarolik huquqi obyekt" maqomiga ega bo'lganini ko'ramiz.

Shu tariqa, sun'iy intellekt tizimlari misolida fuqarolik-huquqiy munosabat obyekt bilan uning huquqiy tartibga solinishi o'rtasidagi an'anaviy ketma-ketlik, ya'ni "avval obyekt, so'ngra huquq" tamoyili amalda teskari yo'nalishda namoyon bo'layotganligini ko'ramiz, bunda avval huquqiy shakl (shartnoma, litsenziya, mualliflik huquqi rejimi) vujudga keladi va faqat shu huquqiy shakl orqali texnik hodisa o'zining fuqarolik-huquqiy obyekt sifatidagi maqomini qozonadi.

Shuningdek, fikrimizcha sun'iy intellektning huquqiy tabiatini tahlil qilish natijalari asnosida uni fuqarolik huquqi obyektlari tizimida ashyolar turkumiga mansub obyekt sifatida tasniflashimiz uchun quyidagi asoslar mavjud:

birinchidan, sun'iy intellekt huquqiy layoqat va muomala layoqatiga ega emas. U mustaqil irodaga, onga va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish qobiliyatiga ega bo'lmagani bois, mantiqiy jihatdan huquq subyekti bo'la olmaydi va shu sababli faqat huquqiy munosabatlar obyekt sifatida namoyon bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, sun'iy intellekt tizimlari – dasturiy ta'minot va algoritmlar ko'rinishida bugungi kunda fuqarolik muomalasida faol ishtirok etmoqda, ular sotiladi, sotib olinadi, litsenziya asosida beriladi va ijaraga topshiriladi. Bu esa ularning amalda allaqachon mulkiy munosabatlar obyekt sifatida qaralayotganini tasdiqlaydi;

uchinchidan, sun'iy intellekt tizimini egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish mumkinligi ashyoviy huquqlarning klassik uchligi (egallik qilish, foydalanish, tasarruf etish) unga to'liq tatbiq etilishini ko'rsatadi;

to'rtinchidan, sun'iy intellekt tizimlari iqtisodiy qiymatga ega, ya'ni ular bozor bahosiga ega, baholanishi, garov predmeti bo'lishi, korxona aktivi sifatida balansda hisobga olinishi mumkin, bu esa o'z o'rnida mulkiy obyektlarga xos asosiy belgidir;

beshinchidan, ko'p hollarda sun'iy intellekt dasturiy ta'minoti moddiy vositalar server, robot yoki boshqa qurilmalar bilan uzviy bog'liq holda mavjud bo'ladi. Bunday holatlarda uni intellektual mulk obyekt va moddiy tashuvchining birligidan iborat "murakkab ashyo" tushunchasi doirasida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yuridik adabiyotlar tahlili shu ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellekt inson tomonidan egallik qilinadigan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan obyekt sifatida tan olish zarur degan fikrlar ilgari suriladi. Bu xulosa esa sun'iy intellektning fuqarolik huquqi obyektlari tizimidagi o'rnini belgilash nafaqat nazariy-ilmii, balki amaliy-huquqiy zarurat ekanini isbotlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellektning huquqiy tabiatiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim mualliflar uni intellektual mulk obyekt, boshqalari raqamli aktiv, murakkab axborot tizimi yoki alohida fuqarolik huquqi obyekt sifatida baholaydilar. Biroq ushbu yondashuvlarning har biri sun'iy intellektning faqat muayyan jihatini yoritib, uning barcha huquqiy xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, amaldagi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish jarayonida sun'iy intellektning fuqarolik huquqi obyektlari tizimidagi o'rnini aniq belgilash, tarkibiy elementlarini tabaqalashtirish, shuningdek unga nisbatan mulkiy va nomulkiy huquqlarning vujudga kelishi, amalga oshirilishi va huquqiy himoya qilinishi bilan bog'liq normativ-huquqiy bazani kompleks tarzda takomillashtirish maqsadga muvofiq.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. The EU Artificial Intelligence Act. https://www.euaiact.com/web_page_name
2. Executive Order 14365 of December 11, 2025, "Ensuring a National Policy Framework for Artificial Intelligence" // The White House, Presidential Actions, 11.12.2025. <https://www.whitehouse.gov/presidential-actions/2025/12/eliminating-state-law-obstruction-of-national-artificial-intelligence-policy/>
3. Gesetz zur Durchführung der Verordnung über künstliche Intelligenz (KI-Marktüberwachungs- und Innovationsförderungsgesetz — KI-MIG), vom Deutschen Bundestag am 11. Juni 2026 beschlossen (Bundestag-Drucksache 21/4594, in der vom Digitalausschuss geänderten Fassung 21/6407), vom Bundesrat am 10. Juli 2026 gebilligt. <https://www.bundestag.de/dokumente/textarchiv/2026/kw24-de-ki-1183820>; <https://www.bundesregierung.de/breg-de/aktuelles/umsetzung-ki-verordnung-2406638>
4. 人工知能関連技術の研究開発及び活用の推進に関する法律 (Act on the Promotion of Research, Development and Utilization of Artificial Intelligence-Related Technologies). https://www8.cao.go.jp/cstp/ai/ai_act/ai_act.html
5. 生成式人工智能服务管理暂行办法 (Interim Measures for the Management of Generative AI Services). http://www.cac.gov.cn/2023-07/13/c_1690898327029107.htm
6. Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. Dordrecht: Springer, 2013. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-94-007-6564-1>
7. Filipova I.A., Koroteev V.D. Future of the Artificial Intelligence: Object of Law or Legal Personality? // Journal of Digital Technologies and Law. — 2023. — Vol. 1, No. 2. — P. 359–386. — DOI: 10.21202/jdtl.2023.15. <https://doi.org/10.21202/jdtl.2023.15>
8. J. Sharipov, R. Nuridinov. Sun'iy intellekt: ta'lim sifatini oshirishning drayveri. 07.05.2025. Rivojlanish strategiya markazining rasmiy sayti. // <https://strategy.uz/index.php?news=2096>
9. I.B.Zokirov. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism.; Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. –T.: TDYU nashriyoti, 2009.// <https://unilibrary.uz/literature/145352>
10. H.Rahmonqulov. Fuqarolik huquqi obyektlari (o'quv qo'llanma). –T.: TDYUI nashriyoti, 2009.// <https://library.tsul.uz/uz/books/23492>
11. O.Oqyulov, J.I.Yuldashev, N.F.Imomov. Fuqarolik huquqiga kirish: Darslik. Toshkent-2025 // <https://library.tsul.uz/uz/books/4834>
12. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: «Vektor-Press», 2010. – 816 b. // <https://library.tsul.uz/uz/books/5269>
13. X.R.Isanov Sun'iy intellekt tizimlari oshiqcha xavf manbayi sifatida: fors-major holati // Yurisprudensiya. – 2025. – 5-jild, 1-son. – B. 32–33. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.1./VINX6590 // <https://yurisprudensiya.tsul.uz/index.php/yurisprudensiya/article/view/90>
14. Архипов, В. В., Наумов, В. Б. (2017). О некоторых вопросах теоретических оснований развития законодательства о робототехнике: аспекты воли и правосубъектности. Закон, 5, 157–170. https://zakon.ru/LibraryHome/Publication?_igZakon=True&_pubId=11526
15. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. I.B.Zokirov; Mas'ul muharrir: H.Rahmonqulov: Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. –T.: TDYUI nashriyoti, 2009.// Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.Oqyulovning umumiy taliriri ostida. - T.: TDYU nashriyoti. 2017.// Fuqarolik huquqiga kirish. Darslik. Oqyulov O., Yuldashev J.I., Imomov N.F., Yuridik adabiyotlar publish. Toshkent. <https://unilibrary.uz/literature/145352>
16. Raxmonov, T. (2025). O'zbekistonda sun'iy intellektning fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlash masalalari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/9), 449–454. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI9Y2025N72>
17. Abbott, Ryan. The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.// https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3611370&_cf_chl_f_tk=tb.O21MM9oZ1m8fWYwXOGkjQyACQdTQQ7c4MRjK68wQ-1783417660-1.0.1.1-YWxNJ.ODxSmAFELzo5muVuNGLbWUxAMECvPCZhFPHqE
18. Bryson, Joanna J. "Robots Should Be Slaves." In Close Engagements with Artificial Companions: Key Social, Psychological, Ethical and Design Issues, ed. Yorick Wilks, 63–74. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2010. DOI:10.1075/nlp.8.11bry// <https://researchportal.bath.ac.uk/en/publications/robots-should-be-slaves>

19. Calo, Ryan. "The Interesting Robot: A Reply to Professor Abbott." *Jerusalem Review of Legal Studies* 25, no. 1 (2022): 1–15. Oxford University Press. https://www.researchgate.net/publication/363114569_The_Interesting_Robot_A_Reply_to_Professor_Abbott
20. S.Bozarov. Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari // Общество и инновации. 2022. Т. 3. № 3. С. 48–56. https://www.researchgate.net/publication/362153091_Sun'iy_intellekt_javobgarligining_axloqiy_va_huquqiy_taomillari
21. Bozarov S.S. Artificial Intelligence – Whether Responsibility of Robots Possible? // *Yurisprudensiya*. – 2021. – №5. – B. 60–64. https://www.researchgate.net/publication/368737614_Artificial_intelligence_-_Whether_responsibility_of_robots_possible
22. A.V.Ubaydullayeva. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan intellektual mulkning huquqiy tartibga solinishi. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. TDYU. Toshkent-2025 <https://justy.uz/books/suniy-intellekt-yordamida-yaratilgan-intellektual-mulkning-huquqiy-tartibga-solinishi/>
23. Rustambekov I., Gulyamov S., Ubaydullaeva A., Intellectual Property in the Digital Age: Educational methodical manual. Tashkent state University of law. Tashkent-2025 <https://library.tsul.uz/uz/books/18507>

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL